



JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHDAGI SOLIQ IMTIYOZLARINI TAKOMILLASTIRISH

Kurbanov Ilxom Begamovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ilmiy tezisda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarining ahamiyati yoritilgan hamda imtiyozlarni takomillashtirish takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslar, daromad, daromad solig'i, soliq, imtiyoz, samaradorlik, soliq stavkasi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan joriy etilgan soliqlardan biri bu jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i - iqtisodiyotni tartibga solishning muhim dastaklaridan biri hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yordamida byudjetga tushumlar ta'minlanishi, aholi daromadlari darajasi, uy xo'jaliklari shaxsiy iste'moli va jamg'armalari tarkibi tartibga solinishi, olingan daromadlardan imkon qadar mantiqli foydalanishni rag'batlantirilishi, daromadlarning tabaqalashuvining kamayishlari asos bo'ladi. Davlat soliqlar yordamida fuqarolarning daromadlari va turmush darajasini tartibga solib turadi. Ushbu ta'sirning qanchalik darajada bo'lishi jismoniy shaxslarning daromadlarini legallashtirishni, tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini va mulkning qaysi holatda saqlanishini belgilab beradi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, agar ta'sir darajasi ham, soliq yuki ham yuqori bo'lsa daromadlarni ko'proq yashirishga moyillik ortadi,



daromad olishga bo'lgan qiziqishlar bir muncha so'nadi, aksincha, soliq yuki kam bo'lsa aks holat yuz beradi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yettita shkalada va eng yuqori stavkasi 60 foiz miqdorida undirilgan. Bugungi kunda esa yagona 12 foizlik stavka amal qilib kelmoqda. Soliq stavkalarining pasaytirilishiga qaramay, ishchilar sonining legallashtirilishi va yangi ish o'rinlarining yaratilishi hisobiga davlat byudjetida daromad solig'i o'ziga xos salmoqqa ega bo'lmoqda. Hozirda aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini yanada oshirish, mulki va aktivlari qiymatining muttasil oshib borishini kafolatlash orqali ular turmush sharoitini yaxshilashni soliq mexanizmi orqali rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Shunga ko'ra, soliq qonunchiligida jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari Soliq kodeksining 378-380-moddalarida belgilab qo'yilgan. Ushbu moddalarga jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari, daromadlariga soliq solinmaydigan jismoniy shaxslar hamda daromadlari qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar soliq solishdan ozod etiladigan jismoniy shaxslar tarkibi keltirib o'tilgan. Soliq kodeksining 480²-moddasida esa O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida daromad solig'ini 1 foizlik stavkasi qo'llanilishi belgilab qo'yilgan. Yuqoridagilar bilan birgalikda Soliq kodeksining 369-moddasida soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga kiritilmaydigan daromadlari tarkibi ko'rsatib o'tilgan. Soliq kodeksining 75-moddasida esa soliq imtiyozlari Soliq kodeksi bilan taqdim etilishi, ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari Soliq kodeksi qoidalarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda Soliq kodeksida nazarda tutilgan ayrim maqsadli imtiyozlarga doir nizom yoki tartiblarning mavjud emasligi, ularning Soliq



kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, ayrim holatlarda Prezident Farmon va qarorlarida belgilab qo'yilgan imtiyozlar bo'yicha Soliq kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirishlarning o'z vaqtida kiritilmasligi soliq agentlari tomonidan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llashda yoki soliq organlari tomonidan imtiyoz chegirmalarini taqdim etishda muammolar (turli xil talqin qilish, tushunmovchilik,)ni keltirib chiqarmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan berilgan imtiyozlarga doir normativ-huquqiy hujjatlardagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish, ularni Soliq kodeksi normalariga muvofiqlashtirish, imtiyozlarni to'g'ri qo'llash va ularning samaradorligini oshirish borasidagi quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Soliq kodeksi 378-moddasining birinchi qismi 16-bandida birinchi xatboshisida soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasining professional va oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish (o'zining, shuningdek yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining yoki erining (xotinining) ta'lim olishi) uchun yo'naltiriladigan, soliq solinishi lozim bo'lgan ish haqi va boshqa daromadlariga soliq solinmasligi belgilab qo'yilgan. Ushbu imtiyoz normasini mazkur imtiyozni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizom normalari bilan muvofiqlashtirish lozim. Ya'ni mazkur imtiyoz soliq to'lovchining professional va oliy ta'lim tashkilotlarida o'qish uchun nafaqat tijorat banklari tomonidan ajratilgan ta'lim kreditlariga (foizlari bilan) qoplashga yo'naltirilgan daromadlariga nisbatan ham, balki yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga qaytarish sharti bilan berilgan mablag'lari (ssudalar) hisobidan amalga oshirilganda ham qo'llanilishi lozim.

2. Soliq kodeksi 378-moddasining birinchi qismi 21-bandida nazarda tutilgan imtiyozlarni soliq to'lovchining soliq davri davomida qanday xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini yoki qayta tayyorlash va malaka oshirish uchun aynan qaysi nodavlat ta'lim tashkilotlariga to'lovlarni to'lash uchun yo'naltiriladigan ish haqi summalari va boshqa daromadlari soliqqa tortilmasligiga aniqlik kiritish lozim. Bunda imtiyozni qo'llash tartibi yoki mazkur



tashkilotlarning tasdiqlangan ro'yxati hamda ularga qo'yiladigan talablarni belgilash tavsiya etiladi.

3. Yer uchastkalarining davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan fuqarolarning mulki bo'lgan uylar (kvartiralar) buzilgan taqdirda fuqarolarga ularni uy-joy bilan ta'minlashga qadar vaqtinchalik uy-joy ijarasi uchun beriladigan har oylik pul kompensatsiyasi to'lovlari jismoniy shaxslarning jami daromadga kiritilmaydigan daromadlari tarkibi (369-modda)ga kiritilishi lozim.

Bizning fikrimizcha yuqorida qayd etilgan taklif va tavsiyalar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan berilgan imtiyozlarga doir normativ-huquqiy hujjatlardagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish, ularni Soliq kodeksi normalariga muvofiqlashtirish, imtiyozlarni to'g'ri qo'llash va ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.